



**ILMIY VA
INNOVATSION
TERAPIYA**

**SCIENTIFIC >>> >>>
AND INNOVATIVE
THERAPY**

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН
SCIENTIFIC AND INNOVATIVE THERAPY
ИЛМИЙ ВА ИННОВАЦИОН ТЕРАПИЯ**

НАУЧНАЯ И ИННОВАЦИОННАЯ ТЕРАПИЯ

Научный журнал по научной и инновационной терапии

основан в 2022 году

Бухарским государственным медицинским институтом имени Абу Али
ибн Сино
выходит, один раз в 2 месяца

Главный редактор – Ш.Ж. ТЕШАЕВ

Редакционная коллегия:

***Н.Ш. Ахмедова (зам. главного редактора), Ш.А. Наимова
(ответственный секретарь),
Г.Ж. Жарылкасинова, Н.А. Нуралиев, К.Ж. Болтаев, Ф.Э. Нурбаев,
С.М. Бахрамов, А.Г. Гадаев,
А.Ш. Иноятов, Р.Б. Абдуллаев***

***Учредитель Бухарский государственный медицинский институт
имени Абу Али ибн Сино***

2025, № 4

2020-2021-yillarda laborator tasdiqlangan kasalxona ichi infeksiyalarining etiologik ko'rsatkichlari keltirilgan. Bunga ko'ra, 2020-yilda eng ko'p ko'rsatkich *Staphylococcus aureus* ga (3 ta) to'g'ri kelmoqda. 2021-yilda laborator tasdiqlangan 15 ta holatdan 8 ta *Staphylococcus aureus*, 5 ta koronavirus infeksiyasi va 1 tadan virusli hepatit B va C qayd etildi.

Bundan kelib chiqadiki, kasalxona ichi infeksiyalarining etiologiyasida *Staphylococcus aureus* eng ko'p omil sifatida kasallik keltirib chiqaradi.

*St.aureus*ning nafaqat Farg'ona viloyati, balki butun dunyo bo'yicha nozokomial infeksiyalarning eng ko'p foizlarda etiologik omil bo'lishi tasdiqlangan. *St.aureus*ning dezinfeksiyalovchi moddalar, antibiotiklarga chidamli shifoxona shtammlarining mavjudligi butun dunyo sog'liqni saqlash tizimining muammolaridan biridir.

Kasalxona ichidagi infeksiyalarning oldini olishda ularni aniqlash va hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Kasalxona ichi infeksiyalarning oldini olish tamoyillari BXBda kasalxonada yuqadigan infeksiyalarning epidemik jarayonining xususiyatlarini bilishga asoslanadi.

Tarqatishning yetakchi usullari: aloqa-maishiy, havo-chang va XSI patogenlarini yuqish asosiy omillari tibbiyot xodimlarining qo'llari, tibbiy asboblari, jihozlar, bemorlarni parvarish qilish buyumlari va choyshablardir.

BXB bo'limlarida shifoxona XSI profilaktikasi tamoyillari shifoxonalarda xSI epidemik jarayonining xususiyatlarini bilishga asoslanadi.

Xulosa. Operatsiyadan keyingi infeksiyalarni har kuni markazlashtirilgan ro'yxatga olishni joriy etish va epidemik ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat qilinadigan asboblarning sterilligi ustidan rejalashtirilgan nazoratni qo'shish operatsiyadan keyingi yiringli patologiyani 3 baravar kamaytirish va bir necha yillar davomida bu ko'rsatkichni past darajada ushlab turish imkonini berdi.

Kasalxona infeksiyalari manbalarini zararsizlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun kasalxona ichi infeksiyalari bilan kasallangan bemorlarni izolyatsiya qilish kerak bo'lgan bo'limni tashkil qilish kerak. BXBga yotqizilgandan keyin kasalxonaga yotqizilgan bemorlarni mikrobiologik tekshiruvdan o'tkazish tavsiya etiladi.

TUKLIBARGLI XANDELIYA, DORIVOR TIRNOQGUL, TO'Q QIZIL EXINATSEYA ASOSIDAGI DERMATOLOGIK SURTMANING MIQDORIY TAHLILI

Habibullayeva N. H., Ziyamuhamedova M.M.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

e-mail nargizaxonhabibullayeva@gmail.com, tel:(33) 837-77-37

Dolzarbli: Farmatsevtika sohasida o'simlik xom ashyosiga asoslangan dorivor vositalar ishlab chiqish yo'nalishi tobora rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy biofaol moddalar — flavonoidlar, fenol birikmalari, saponinlar, polisaxaridlar kabi komponentlarga asoslangan yumshoq dori turlari (surtma, krem, gel) keng qo'llanilmoqda. Ular yallig'lanishga qarshi, antimikrob, regeneratsiyani tezlashtiruvchi va immunomodulyator ta'sirga ega. Bunday surtmalarning ustunligi ularning mahalliy ta'siri, nojo'ya ta'sirlarning minimal darajada bo'lishi hamda organizm tomonidan yaxshi o'zlashtirilishidir.

Shu bilan birga, fitokomponentlarning murakkab kimyoviy tarkibi sababli ularning miqdoriy tahlilini an'anaviy kimyoviy usullar bilan aniqlash qiyin. Shu bois yuqori sezuvchan instrumental usullar — ayniqsa, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) yordamida o'simlik asosidagi preparatlardagi faol moddalar miqdorini baholash zamonaviy farmatsevtik tahlilning muhim yo'nalishiga aylandi. YSSX usuli komponentlarning kimyoviy tuzilishidan qat'i nazar ularni aniq ajratish, identifikatsiya qilish va miqdoriy baholash imkonini beradi. Ayniqsa, flavonoidlar kabi polifenol birikmalar uchun bu usul yuqori selektivlik va takrorlanuvchanlikni ta'minlaydi. Shu sababli, fitosurtmalar sifatini nazorat qilishda YuSSX usulini joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan

katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: tuklibargli xandeliya, dorivor tirnoqgul va to'q qizil exinatseya ekstraktlari asosida tayyorlangan dermatologik surtma tarkibidagi flavonoidlar yig'indisi miqdorini YSSX usulida aniqlash.

Usul va uslublar: Miqdoriy tahlil Agilent Technologies 1260 Series (AQSh) markali yuqori samarali suyuqlik xromatografi yordamida "Chemstation 09.03.a" dasturiy ta'minotida amalga oshirildi. Ajratish jarayoni C18 teskari fazali kolonna (4,6×150 mm, zarracha hajmi 5 μm)da olib borildi. Mobil faza sifatida 0,3% ortofosfat kislotasi (A) va metanol (B) gradient rejimda ishlatildi. Deteksiya 357 nm to'lqin uzunligida UV-detektorda olib borildi, oqim tezligi — 1 ml/min, harorat — 40°C, in'eksiya hajmi — 10 μl, tahlil davomiyligi — 20 daqiqa. Rutin standart eritmasi bilan sinov namunalarining cho'qqi maydoni taqqoslanib, ushlanish vaqti 13,12 daqiqa etib qayd etildi.

Natijalar: YuSSX xromatogrammalari asosida surtma tarkibida rutin mavjudligi tasdiqlandi. Dermatologik surtmalarda flavonoidlarning o'rtacha miqdori 0,148±0,001% ni tashkil etdi. Tahlilning takrorlanish aniqligi $E = 0,07\%$ bo'lib, $RSD < 1\%$ va $t(95\%,4)=0,576$ natijalari usulning ishonchliligini ko'rsatdi. Metrologik baholash natijalariga ko'ra surtma tarkibidagi faol moddalarning bir jinsliliigi va barqaror taqsimlanishi aniqlandi. Surtma tarkibidagi flavonoidlarning cho'qqi intensivligi va spektral profili standart rutin bilan mos keldi.

Xulosa: Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida o'simlik asosidagi surtmalarda flavonoidlarning miqdoriy tahlili yuqori aniqlikda va takrorlanish ishonchliligi bilan amalga oshirildi. Bu usul fitopreparatlarning sifatini nazorat qilish, standartlashtirish va ishlab chiqarish texnologiyasini optimallashtirishda samarali qo'llanilishi mumkin. Olingan natijalar o'simlik xom ashyosiga asoslangan surtmalarning farmatsevtik sifat ko'rsatkichlarini baholashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

YULDUZSIMON ANIS(ILLICIUM VERUM) UNING FARMAKOLOGIYADAGI AHAMIYATI

Hakimova Ruxsora Sherzod qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Djalilova Z.O. Fundamental tibbiyot kafedrası v.b., professori

Email:djalilovazarnigorobidovna@oxu.uz

Annotasiya: Yulduzsimon anis (*Illicium verum*) — an'anaviy tibbiyotda keng qo'llaniladigan o'simlik bo'lib, zamonaviy farmakologiyada muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada yulduzsimon anisning biologik tarkibi, dorivor xususiyatlari va farmakologik qo'llanilish sohalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida o'simlikdan olinadigan efir moylari va shikimik kislotaning farmakologik ta'siri yoritildi. Yulduzsimon anisni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, farmakologik jihatdan foydali moddalarga boydir.

Kalit so'zlar: Yulduzsimon anis, *Illicium verum*, shikimik kislota, efir moylari, farmakologik ta'siri, tabiiy dori vositalari

Kirish: Mazkur maqolada yulduzsimon anis (*Illicium verum*) haqida so'z yuritiladi. Yulduzsimon anis bo'yi 6-8m keladigan daraxtning mevasi hisoblanadi. Bu daraxt doimo yashil rangda bo'ladi. Anis yulduzchsi 6-8bo'lakli yulduzcha shaklida bo'ladi. Bu mevalar dastlab yashil pishgandan so'ng esa jigarrang tusga kiradi. Uning pishib qurigan mevasida juda ko'p moddalar boladi. Qadimdan va hozir ham uni yallig'lanish va gripp kasalliklarida ko'proq ishlatiladi. U quritilganda tanasida bo'lgan efir moylari hisobiga xushbo'y hidli bo'ladi. Bu xushbo'y hidni Yulduzsimon anisning faol komponenti anetol (anethol)beradi. O'z navbatida bu modda xushbo'y hid beribgina qolmay farmakologiyada anestetik,antiviral va mikroblarga qarshi moddalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Anetol-yulduzsimon anisning efir moyi tarkibining 80-90 foizini tashkil etadi.